

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Surxondaryo viloyatiga tashrifida belgilab berilgan vazifalar ijrosi keng jamoatchilikka targ'ib qilindi



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Surxondaryo viloyatiga tashrifida belgilab berilgan vazifalar ijrosi keng jamoatchilikka targ'ib qilindi. Bugun, 10 iyun kuni shahardagi Qo'g'irchoq teatri binosida Xalq deputatlari Termiz shahar Kengashi kotibiyati tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning joriy yil 1-2-iyun kunlarida Surxondaryo viloyatiga tashrifi davomida belgilangan vazifalar, dasturlar va boshqa masalalar bo'yicha viloyat Kengashining 2021 yil 4 iyundagi № 09-01/380-sonli topshirig'i ijrosini ta'minlash maqsadida belgilab berilgan ish-reja asosida Xalq deputatlari mahalliy Kengashlari

deputatlari tomonidan targ'ibot-tashviqot tadbiri tashkil etildi. Mazkur tadbirga shahardagi deputatlar, mahalla faollari, nuroniy otaxonlar, yoshlar, ayollar hamda keng jamoatchilik vakillari jalb qilinib, 220 nafar kishi qamrab olindi.

Tadbirni Termiz shahar 3-sektor rahbari, shahar ichki ishlar organlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig'i Normamatov Anvar Mamatovich ochib berdi. Shuningdek, Xalq deputatlari viloyat Kengashi deputati, "Yuksalish" umummilliy harakati viloyat bo'linmasi rahbari Qobulova Mavluda Umarjonovna tomonidan Prezidentimizning viloyatimizga tashrifi davomida ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda belgilangan vazifalar xususida ma'ruza qilindi.

Tadbirda "Ayollar", "Yoshlar" va "Temir" daftarlariga kiritilgan oilalar bilan olib boriladigan vazifalar bo'yicha Termiz shahridagi 3-sektor mas'ul kotibi Pirmatov Jaxongir Xolmamatovichning ma'ruzasi tinglandi. Ochiq muloqot jarayonida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan taklif va tavsiyalar berildi. Targ'ibot tadbiri juda ko'tarinki-sizg'in tarzda o'tdi.

